

IX-XII ASRLAR O'RTA OSIYO TABIIY TARIXIY GEOGRAFIYASI ARAB
MANBASHUNOSLIGI

Buoyscha Yuldasheva Ma'rufjon qizi
FarDU, Tarix fakulteti IV bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada IX-XII asrlar O'rta Osiyo tabiiy tarixiy geografiyasida arab manbashunosligining tutgan o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Abu Zayd al-Balxiy, al-Ya'qubiy, Ibn al-Faqih, Ibn Xurdodbeh, Istaxriy, Balazuriy, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy, Ibn al-Asir, Ibn Xavqal, Yoqut al-Hamaviy, Abu Bakr Narshaxiy, Hudud al-olam.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье говорится о роли и значении арабского источниковедения в естественно-исторической географии Средней Азии IX-XII вв.*

Ключевые слова: *Абу Зайд аль-Балхи, аль-Якуби, Ибн аль-Факих, Ибн Хурдадбех, Истахри, Балазури, Абу Джафар Мухаммад ибн Джарир ат-Табари, Ибн аль-Асир, Ибн Хаукал, Якут аль-Хамави, Абу Бакр Наршахи, Худуд аль-Олам.*

O'rta Osiyoning IX-XII asrlar tarixini yoritishda arab tilidagi tarixiy-jug'rofiy adabiyotlar muhim o'rin tutadi. Arab geograf-olimlari O'rta Osiyoning iqlimi, tabiiy sharoitlari, xo'jaligi, daryolari, tog'lari, shahar va viloyatlari haqida ma'lumotlar yozib qoldirganlar. Xususan, bu yurtga turli davrlarda tashrif buyurib, haqiqiy ahvolni o'z ko'zi bilan ko'rgan sayyohlarning yozib qoldirgan ma'lumotlari maroqlidir. Ular keltirgan axborotlarning to'g'rilik darajasi yuqoridir.

Sharq Renessansi davrida arab jug'rofiya fanida yuksalish jarayoni kechdi, Bag'dod va Balx maktabi shakllandi. Abu Zayd al-Balxiy (vaf. 934) Balx maktabiga asos soldi. U asarida dunyo va X asr musulmon olamining yigirma iqlimi xartasini tuzdi. Kitobdagi axborotlar O'rta dengiz atrofi va Markaziy Osiyo mintaqasi bilan birga ulkan mintaqani qamrab oladi. Balxiy asari bizgacha yetib kelmagan, deb hisoblanadi[7: 5-b].

IX asr arab geograf olimi al-Ya'qubiy (Abul Abbos Ahmad ibn Ya'qub) Bag'dodda tug'ilib, uzoq yillar davomida Arab xalifaligi tarkibiga kirgan Armaniston, Xuroson, Falastin, Misr va Mag'ribda yashagan. Shubhasiz, uzoq muddat davomida turli mamlakatlarda yashash unga bo'lajak kitoblari uchun materiallar to'plash imkoniyatini bergan. Jumladan, "Kitob al-buldon" ("Mamlakatlar to'g'risidagi kitob") nomli asarida al-Ya'qubiy ko'p mamlakatlar qatorida Eron, Movarounnahr, Xorazm va Seyiston haqida, ularning jug'rofiy joylanishi, yirik shaharlari va qal'alari, aholisi, uning mashg'ulotlari va urf-odatlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirgan. "Kitob al-buldon" asarining ikkita nusxasi Germaniyada saqlanmoqda. Asarning arabcha matni 1892-yilda Leydenda golland sharqshunos-olimi M. Ya. de Gueye tomonidan nashr etilgan[1:112-b].

O'rta Osiyoning tarixiy jug'rofiyasi, uning Balx, Samarqand va boshqa shaharlari to'g'risidagi ma'lumotlar Ibn al-Faqihning "Kitob axbor al-buldon" ("Mamlakatlar to'g'risidagi xabarlar kitobi") asarida uchraydi. Muallifning haqiqiy ismi - Abu Bakr Ahmad ibn Muhammad al-Hamadoniyydir. Ibn al-Faqih asarining to'liq matni saqlanmagan. Bizgacha

asarning 1022-yilda Ali ibn Ja'far ash-Shayzoriy tomonidan tahrir etilgan va qisqartirilgan nusxasi yetib kelgan. Ushbu nusxa de Guye tomonidan Leydenda 1885-yilda nashr etilgan. 1923-yilda esa Mashhaddagi Imom Rizo masjidi kutubxonasida "Kitob axbor al-buldon"ning ikkinchi qismi qo'lyozmasi topildi.

Tarixiy manba sifatida eronlik olim Abulqosim Ubaydulloh ibn Xurdodbeh (820-913) ning asarlari diqqatga sazovordir. Ibn Xurdodbeh turli fanlarga oid 10 ga yaqin asar yozdi. Ular orasida eng muhimi "Kitob masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga eltuvchi yo'llar haqidagi kitob") hisoblanadi. Unda muallif Arab xalifaligi tarkibiga kirgan mamlakatlar tarixiy geografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Ibn Xurdodbeh asarida O'rta Osiyoning shaharlari - Samarqand, Kushoniya, Ushrushona, Shahrison, Shosh va Isfijob (Sayram) haqida ma'lumotlar keltiriladi. Bizgacha asarning faqat qisqartirilgan varianti yetib kelgan. Uni 1889-yilda de Guye nashr ettirgan. Asarning ruscha tarjimai N.Valixanova tomonidan Bokuda 1986-yilda nashr etildi.

Ibn Xurdodbehga zamondosh bo'lgan yana bir eronlik geograf olim va sayyoh Abu Is'hoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forsiy al-Istaxriy (850-934) edi. U ko'p sayohat qilgan va Movarounnahr, Suriya, Misr, Mag'rib singari mamlakatlarda bo'lgan. O'z sayohatlari chog'ida al-Istaxriy ushbu mamlakatlar jug'rofiyasiga oid ko'p materiallar to'pladi va keyinchalik "Kitob masolik ul-mamolik" ("Mamlakatlarga eltuvchi yo'llar haqidagi kitob") nomli asarini yozdi. U asariga o'zining zamondoshi Abu Zayd Ahmad al-Balxiyning "Suvar al-aqolim" ("Qit'alar tavsifi") kitobini asos qilib oldi hamda unga ancha yangi ma'lumotlar qo'shdi. Boshqa musulmon mamlakatlari qatorida, al-Istaxriy O'rta Osiyo, uning sarhaddari, iqlimi, tabiati, shaharlari, daryolari, tog'lari, o'simligi, hayvonot dunyosi to'g'risida ma'lumotlar yozib qoldirgan. Al-Istaxriy asarining arabcha matni uch marta (1870, 1927, 1967) Leyden shahrida nashr etilgan. Asar XVI asrdayoq Abulmahosin Muhammad al-Naxichevoniy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Asarning qo'lyozma nusxalari Sankt-Peterburg va Toshkent shaharlarida saqlanmoqda.

Jug'rofiy bilimlarning ko'payishiga arab sayyohi va olimi ibn Havqal katta hissa qo'shdi. 977-yilda Ibn Havqalning "Kitab surat al-arz" ("Yerning surati haqidagi kitob") nomli asari dunyo yuzini ko'rdi. Asarning ikkinchi nomi - "Kitob masolik va-l-mamolik" ("Masofalar va mamlakatlar kitobi"). Muallif Istaxriyning asarini asos qilib oladi, uni tahrir etib, qayta ishlaydi. Ko'p mamlakatlar qatorida, Ibn Havqal Movarounnahr va Farg'onaning har tomonlama jug'rofiy tavsifini beradi. Muallif Farg'ona vodiysining Axsikat (poytaxt), Qubo, O'zkand, Asbara (Isfara), Sux, Avval, Koson kabi shaharlari, shuningdek, Miyon Rudon (Ikki daryo - Norin va Qoradaryo oraliq'i) muzofotiga alohida to'xtalib o'tadi. Ibn Havqal asariga Movarounnahrning xaritasini ilova qiladi. Bu O'rta Osiyoning birinchi xaritasi edi. Unda Jayhun daryosi, Buxoro, Samarqand, Shosh va Isfijob kabi shaharlar, shuningdek, Ushrushona va Xorazm viloyatlari tasvirlangan.

Ibn Xavqal asarining bizgacha yetib kelgan bir nechta qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ular Gollandiya, Turkiya, Fransiya, Angliya va Germaniya singari mamlakatlardagi kutubxonalarda saqlanadi. Asarning Istanbuldagi To'pqaqapu saroyi kutubxonasida 3346-raqam ostida saqlanayotgan nusxasida al-Istaxriy va Ibn Xavqalning ma'lumotlari XII asrning

ikkinchi yarmida noma'lum muallif tomonidan o'sha davrga oid qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitilgan.

Asarning tanqidiy matni ilk bor gollandiyalik olim M. de Guye tomonidan Bibliotheca geographorum arabicorum (Arab geograflari kutubxonasi) turkumi (Lugduni-Batavorum, 1873) ning 2-jildi sifatida nashr etilgan bo'lib, unda asarning Leyden, Oksford va Parij kutubxonalarida saqlanayotgan nusxalari jalb etilgan. Asarning ikkinchi tanqidiy matni fransuz olimi J.X. Kramers tomonidan nashr etilgan bo'lib, unda asarning To'pqupu saroyi kutubxonasida saqlanayotgan eng to'liq nusxasi asos qilib olingan, shuningdek asarning M. de Guye tayyorlagan tanqidiy matni, Leyden, Oksford, Parij nusxalari va fors tilidagi tarjimalari ham jalb etilgan. Ushbu yangi matn Bibliotheca geographorum arabicorum (Arab geograflari kutubxonasi) ning keyingi nashrlari (Lugduni-Batavorum, 1939, 1967, 1992) ning 2-jildi sifatida M. de Guye matnining o'rni kiritilgan[8:7-b].

Ibn Xavqal asarining ayrim qismlari rus tiliga tarjima qilingan. Xususan, A.Ya.Garkavi asardagi slavyanlar va ruslar haqidagi ma'lumotlarni (Sankt-Peterburg, 1870), S.Volin asarning Xorazm, Isbijob va Taroz haqidagi qismlarini (Moskva, 1939; Olmaota, 1960), E.K.Betger Samarqand, Nasaf, Kesh, Shosh, Ushrushana, Isbijob va Farg'ona haqidagi qismlarini (Toshkent, 1957) rus tiliga tarjima qilgan. Mazkur tarjimalar asarning ayrim qo'lyozmalari yoki M. de Guye tayyorlagan birinchi tanqidiy matnidagi amalga oshirilgan.

O.B.Frolova asarning Farg'ona haqidagi qismini J.X.Kramers tayyorlagan yangi tanqidiy matnidagi rus tiliga qayta o'g'irgan (Toshkent, 1988). Asarning to'liq matni J.X.Kramers va G.Viyet tomonidan 2 jildda fransuz tiliga (Parij, 1965, 2001), Movarounnahr haqidagi qismi turk tiliga tarjima qilingan (Anqara, 1985, 2001). Asarning "Movarounnahr" qismi H.Mamadaliyev tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan (Toshkent, 2007). R.Xudoyberganov al-Istaxriyning "Kitob masolik al-mamolik" asarini, shu jumladan uning "Movarounnahr" qismini o'zbek tiliga tarjima qilgan (Toshkent, 2007). Lekin bu ikkala tarjima nashr etilmagan[8:8-b].

O'rta Osiyo to'g'risidagi ma'lumotlarni arab sayyohi va olimi Yoqut ibn Abdulloh ar-Rumi al-Hamaviyning "Mu'jam al-buldon" ("Mamlakatlar ro'yxati") nomli asarida ham uchratish mumkin. Kitobda alifbo tartibida mamlakatlar, viloyatlar, shaharlar to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Odatda har bir maqola ularning jug'rofiy joylashi tavsifi bilan boshlanib, bu yerda yashagan xalqlar, ularning udumlari haqidagi axborotlar bilan yakunlanadi. Yoqutning "Mamlakatlar ro'yxati" asarida O'rta Osiyo va Sharqiy Turkiston viloyatlarining tavsifini o'z ichiga olgan talay maqolalar o'rin olgan. Yoqut al-Hamaviy Farg'onaning yirik shaharlari (Axsikat, Koson, Qubo, Marg'inon, O'zkand, Havoqand, Xo'jand) va qishloqlari (Andukan, Lamish, Rishton, Xaylam, Gandob va b.) haqida ma'lumotlar keltiradi. "Mamlakatlar ro'yxati" turli manbalar asosida yozilgan, ammo Yoqut foydalangan manbalarning aksariyati keyinchalik yo'qolib ketganligi bois mazkur asar unikal manba sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'rta Osiyoning tabiiy tarixiy geografiyasi tarixiga yana bir manba IX asr tarixchi olimi Abu-l-Abbos Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir ibn Dovud al-Kotib al-Bag'dodiy al-Balazuriy (892/893-yilda vafot etgan) qalamiga mansub "Kitob futuh al-buldon" ("Mamlakatlarning fath etilishi haqidagi kitob") hisoblanadi. X asrda al-Mas'udiy: "Men mamlakatlarning fath etilishi

haqida yozilgan bundan yaxshi kitobni bilmayman”, deb yozgan edi. “Kitob futuh al-buldon” o‘z vaqtida Yoqut Hamaviy va Ibn al-Asir asarlari uchun manba bo‘lib xizmat qilgan. Ammo bu asar bizgacha to‘liq holda yetib kelmadi. Hozirgi kunda uning qisqartirilgan va tahrir qilingan varianti mavjud. Ushbu asarning arabcha matni ilk marotaba 1866-yilda Leyden shahrida arabshunos olim M.Ya.de Guye tomonidan nashr etildi[1:113-b]. Keyinchalik “Kitob futuh al-buldon” arab mamlakatlarida ko‘p marotaba nashr etildi. Asar to‘liq ingliz va nemis, ikkinchi qismi fors, ayrim parchalari esa rus tilida ham nashr etilgan. Uning Xuroson va Movarounnahrda bag‘ishlangan qismi sharqshunos olim Sh.S.Kamoliddin tomonidan o‘zbek tiliga o‘g‘irilib, 2022-yilda Toshkentda nashr etildi.

“Al-komil fi-t-tarix” (“Mukammal tarix”) nomli salmoqli asar muallifi yirik arab tarixchisi Izzuddin Abulhasan Ali ibn Muhammad (1160-1234 yy.) bo‘lib, u ko‘pincha Ibn al-Asir nomi bilan mashhur bo‘lgan. Sharq mamlakatlari xalqlari, shuningdek Movarounnahr xalqlari tarixini o‘rganishda uning birinchi asari “Al-komil fi-t-tarix” katta ahamiyat kasb etadi. “Al-komil fi-t-tarix” asari o‘n ikki jilddan iborat bo‘lib, unda dunyoning yaratilishidan to 1231 yilga qadar Sharq mamlakatlarida bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar yilma-yil, xronologik, ya‘ni davr tartibida bayon etib beriladi. Asarda ko‘pgina qimmatli manbalar, xususan Tabariy hamda as-Sallomiyning bizgacha yetib kelmagan “Kitob fi axbor vuloti Xuroson”, (Xuroson hukmdorlari haqida axborot beruvchi kitob) kabi qimmatli asarlardan keng foydalangan. “Al-komil fi-t-tarix”ning birinchi qismi (I-IV jildlari) olamning yaratilishidan to 931 yilgacha bo‘lib o‘tgan voqealar bayonidan iborat. Bular avval bo‘lib o‘tgan olimlar Balazuriy, Tabariy, Ibn Miskavayx, as-Sulamiy va boshqalarning asarlariga tayanib yozilgan. Asarning VII-XII jildlari mustaqil, alohida ahamiyatga ega bo‘lib, 924-1231 yillar orasida Sharq mamlakatlarida, shuningdek Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z ichiga oladi va asosan qo‘lyozma manbalar, shuningdek tarixni yaxshi bilgan kishilar bergan axborotlar hamda muallifning shaxsiy kuzatishlari davomida to‘plagan boy va faktik material asosida yozilgan. Kitobning to‘la matni ikki marta (1851-1876 yillari va 1901 y.) chop etilgan. Ayrim parchalarni rus tiliga N.A.Mednikov, A.Ye.Krimskiy tarjima qilganlar. Asar Xivada to‘la ravishda o‘zbek tiliga Muhammad Rahim soniy (1863-1910 yy.) davrida Nurillo Muftiy, Muhammad Sharif oxund va boshqalar tomonidan tarjima qilingan bo‘lib, Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida o‘n uchta mo‘tabar qo‘lyozmalari saqlanmoqda.

Eronlik taniqli olim Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839-923) ilohiyot va tarixga oid o‘ndan ortiq asar muallifidir. Ammo ulardan bizgacha faqat bittasi – “Tarix ar-rusul va-l-muluk” (“Payg‘ambarlar va podsholar tarixi”) kitobining to‘liq bo‘lmagan qo‘lyozmasi yetib kelgan. At-Tabariy asarida boshqa musulmon mamlakatlari qatorida O‘rta Osiyo tarixiga oid ma‘lumotlar ham keltirilgan. “Payg‘ambarlar va podsholar tarixi”da arablar tomonidan Movarounnahrning shahar va viloyatlari – Buxoro, Samarqand, Farg‘ona, Xorazmning istilo qilinishi haqida ma‘lumotlar mavjud. “Tarix ar-rusul va-l-muluk” asarining tahrir qilingan forsha matni ham mavjud. Bu tarjima Somoniy hukmdor Nuh ibn Mansurning ko‘ratmasi bilan uning ma‘rifatli vaziri Bal‘amiy tomonidan 963-yilda amalga oshirilgan. Bu oddiy tarjima emas, balki yangi faktlar bilan boyitilgan asarning yangi bir nusxasi, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Tabariy asarining 15 jilddan iborat matni de Guye tomonidan 1879-1901-yillarda nashr etilgan. Toshkentda O‘zR FA Sharqshunoslik instituti

qoshidagi Sharq qo'lyozmalari markazida ushbu asarning 13 jildlik Qohira nashri (1908) saqlanmoqda. Fransuzcha tarjimasini 1867-1874-yillarda G.Zotenberg tomonidan nashr etilgan. Bal'amiy tomonidan tahrir qilingan asarning fors tilidagi nusxasi Lakhnav va Kanpurda (1874, 1876, 1916) chop etildi. Asarning qisqartirilgan ruscha tarjimasini Toshkentda 1989-yilda dunyo yuzini ko'rdi. Toshkentda, Sharq qo'lyozmalari markazida "Tarix ar-rusul va-l-muluk" asarining XIX asrda Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjimasini qo'lyozmasini saqlanmoqda.

Arab tilidan forsiyga tarjima qilingan ilk asarlardan biri Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far an-Narshaxiy (899-959) qalamiga mansub "Tarix-i Buxoro" edi. Asar 944-yilda yozilgan, 1128-yilda esa Abu Nasr Ahmad al-Qubaviy tomonidan forsiyga o'girilgan. Al-Qubaviy tarjima jarayonida asarni tahrir etib, ancha qisqartirdi. 1178/79-yilda ushbu qisqartirilgan nusxa Muhammad ibn Zufar tomonidan ikkinchi marotaba tahrir qilindi. Bizgacha yetib kelgan nusxa esa keyinchalik noma'lum muharrir tomonidan uchinchi marta tahrir qilinib, unga qo'shimchalar kiritilganga o'xshaydi, chunki unda 1179-1220-yillar voqealari ham bayon qilingan. Tarjimon va muharrirlar o'z ishlariga mustaqil tus berishga uringanlar. Ular asarni faqat tarjima qilish va tahrir etish bilan cheklanmay, unga keyingi yillarda sodir bo'lgan voqealarni kiritganlar. Narshaxiy asarining arab tilidagi asl nusxasi hamda Ahmad al-Qubaviy va Muhammad ibn Zufar tomonidan qilingan tarjima va tahrirlar bizgacha yetib kelmagan.

"Buxoro tarixi" asarining bir yoki bir qancha qo'lyozma nusxalari asosida tayyorlangan matni ham bir necha bor – 1892-yili Ch. Shefer tomonidan Parijda, 1904-yili Mullo Sulton tomonidan Buxoroda, 1939-yili Mudarris Rizaviy tomonidan Tehronda nashr qilingan. Shuningdek, «Buxoro tarixini»ning N. Likoshin tomonidan bajarilgan izohli ruscha tarjimasini 1897-yili Toshkentda va R. Frayning izohlar ilova etilgan inglizcha tarjimasini 1954-yili Kembrijda bosilib chiqdi[3:3-b].

"Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila-l-mag'rib" ("Olam(Yer)ning mashriqdan mag'ribgacha bo'lgan chegaralari haqida kitob") fanda qisqacha "Hudud ul-olam" shaklida tanilgan. Mazkur kitob hijriy 372 (milodiy 982-983) yili Guzgon viloyatining voliyisi Abulhoris Muhammad ibn Ahmad uchun yozilgan, biroq hanuzgacha uning muallifi aniqlanmagan va fanda "anonim" (muallifi noma'lum) deb yuritiladi. "Hudud ul-olam" yagona nusxada saqlangan bo'lib, 1892-yili Samarqanddagi kitob do'konidan Abulfazl Gulpaygoniy tomonidan topildi va u orqali rus sharqshunosi A.G. Tumanskiy qo'liga tushib, Sankt-Peterburgga olib ketildi. Asar haqida Gulpaygoniy, so'ngra A.G. Tumanskiy ilm ahliga axborot berdilar[9:4-b]. Shundan so'ng, olimlar undan tadqiqotlarda foydalanish imkoniga ega bo'ldilar. "Hudud al-olam"ning fotonusxasi V.V.Bartoldning kirish so'zi va izohlari bilan 1930-yilda nashr etildi. 1937-yilda sharqshunos V.V. Minorskiy esa uning ilmiy izohli inglizcha tarjimasini e'lon qildi. V.V. Bartold nashri asosida, "Hudud ul-olam" Tehronda ham chop etildi. Bu nodir manba 1961-yili Kobulda, V.V. Minorskiy tarjimasini asosida fors hamda kirill alifbosidagi matni 1983-yili Dushanbeda chop etilgani ma'lum. Asarning forsha tarjimasini Eronda ikki marta – M.Setude va Sayyid Jaloluddin Tehroniylar tomonidan nashr etilgan. 1983-yilda asar tojik tilida chop etildi. Asarning Movarounnahr viloyat, shahar va yirik qishloqlari haqida axborot beruvchi parchalar O.Bo'riyev tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, Toshkentda 2008-yilda nashr etildi.

“Hudud al-olam” kirish va 59 bobdan iborat. Dastlabki yettita bobda Yer, dengizlar, orollar, daryolar va cho‘llarning tavsifi beriladi. Shu yerning o‘zida oykumena (rub’i maskun) – Yerning odamlar yashaydigan qismi tavsifi berilgan va uning alohida viloyatlarga bo‘linishi ko‘rsatilgan. Qolgan boblarda sharqdan g‘arbga qarab mamlakatlarning joylanishi, ularning aholisi, bu yerlarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar, savdoning ahvoli xususida so‘z yuritiladi. Asarda O‘rta Osiyo, shu jumladan Farg‘onaning shaharlari, aholisi va xo‘jaligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan[2:107-b].

Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki, arab manbalarini o‘rganish orqali O‘rta Osiyoning IX-XII asrlar tabiiy tarixiy geografiyasi haqida qimmatli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Arab manbalarida keltirilgan ma’lumotlar O‘rta Osiyoning daryolari, ko‘llari, tog‘lari, tabiiy boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o‘rta asrlar). – T.: O‘qituvchi, 2001.
2. Doniyorov A.X. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi / Darslik.— Toshkent: NIF MSH, 2020.
3. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А.Расулев таржимаси. Масъул мухаррир А.Ўринбоев // Мерос. – Тошкент: Камалак, 1991.
4. Ал-Идриси. Извлечения из “Нузхат ал-муштак фи Ихтирак ал-афак или Китаб-Роджер”. Пер. С. Волина // Материалы по истории Туркмен и Туркмении. Т. 1. VII – XV вв. Арабские и персидские источники. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1939. С. 220 – 222.
5. Абу-л-‘Аббос Аҳмад ибн Йаҳйо ал-Балозурий. Футуҳ ал-булдон. Хуросоннинг фатҳ этилиши / Сўз боши, араб тилидан таржима, шарҳлар, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи Ш.С.Камолиддин. Тошкент: ТошДШИ, 2017.
6. Ибн Хордадбех. Книга путей и стран / Перевод с Арабского, комментарии, исследование, указатели и карты Н.Велихановой. – Баку: Элм. 1986.
7. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик. Хуросон ва Мовароуннахр. Араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайбергенов. – Тошкент: Фан, 2019.
8. Ибн Ҳавқал. Китаб сурат ул-ард. Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш. С. Камолиддин. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011.
9. Худуд ул-олам. Мовароуннахр тавсифи. Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи О.Бўриев. – Т.: Ўзбекистон, 2008.